



## OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIDA MONOPOLIYANING O'RNI

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*magistranti*

*Sadullayeva Mexrinoz Djamshedovna*

[\*mexrinozs@icloud.com\*](mailto:mexrinozs@icloud.com)

*(90) 081 86 63*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis oziq-ovqat xavfsizligi tizimida monopolistik tuzilmalarning o'rni va ta'sirini kompleks ilmiy-huquqiy tahlil qiladi. Jahon miqyosida agrar va oziq-ovqat bozorlarida kuzatilayotgan konsentratsiya jarayonlari, ularning iste'molchi narxlariga, mahalliy fermerlar raqobatbardoshligiga va milliy oziq-ovqat mustaqilligiga ta'siri o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat, monopoliya, institutsional tizim, salohiyat, qishloq xo'jaligi, agrar bozor konsentratsiyasi.

## РОЛЬ МОНОПОЛИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

**Аннотация:** Данная диссертация проводит комплексный научно-правовой анализ роли и влияния монополистических структур в системе продовольственной безопасности. Исследуются процессы концентрации, наблюдаемые на мировых аграрных и продовольственных рынках, их влияние на потребительские цены, конкурентоспособность местных фермеров и национальную продовольственную независимость.

**Ключевые слова:** продовольствие, монополия, институциональная система, потенциал, сельское хозяйство, концентрация аграрного рынка.



## THE ROLE OF MONOPOLIES IN FOOD SECURITY

**Abstract:** This thesis conducts a comprehensive scientific and legal analysis of the role and impact of monopolistic structures within the food security system. It examines concentration processes observed in global agrarian and food markets, their effects on consumer prices, the competitiveness of local farmers, and national food independence.

**Keywords:** food, monopoly, institutional system, capacity, agriculture, agrarian market concentration.

### KIRISH

Bugungi kunda butuh jahon bo‘ylab rivojlangan va endi rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, oziq-ovqat bozorida ko‘plab tendensiyalarga sabab bo‘lib kelayotgan monopoliyalar o‘zining ta‘sirini ko‘rsatib kelmoqda. Iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ustuvorligini inobatga olgan holda raqobatni himoya qilish; jamiyatda raqobatga qarshi har qanday xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish; raqobat muhitini rivojlantirish va shakllantirish; tovar va moliya bozorlari ishtirokchilarining iqtisodiy faoliyati erkinligini hamda tovarlarning erkin harakatlanishini ta‘minlash bugungi kun zamon talabiga aylanmoqda.<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tashkiloti FAO o‘zining hisobotlarida so‘nggi o‘n yillikda monopoliyalar sonining oshishi juda ko‘plab dehqon va fermer xo‘jaliklarining faoliyatiga juda katta ta‘sir ko‘rsatayotgani va bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligining zaiflashuvi hamda milliy oziq-ovqat xavfsizligi tizimiga zarba berib kelayotganini ta‘kidlab o‘tgan. Huquqshunos olim Philip Howard monopoliyalar haqida o‘z yozishmalarida shunday deydi – “Agrar monopoliyalar nafaqat raqobatni cheklaydi, ulat oziq-ovqat

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonuni – <https://lex.uz/docs/-6518381>



suverenitetini – ya’ni xalqlarning o‘z oziq-ovqat tizimini belgilash huquqini – eroziyaga uchratadi”<sup>2</sup>

### **Dolzarbligi**

Agrar monopoliyaning bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi doirasida dolzarbligining bir necha global sabablarini keltirib o‘tishimiz mumkin. **Birinchidan**, ushbu ikki element ya’ni oziq-ovqat ham monopoliya ham bugungi iqtisodiy jihatda rivojlanishni talab qilib kelayotgan tahlikali zamonda har bir davlat siyosatida suv va havodek zarur bo‘lib, davlatning kelgusi barqaror strategiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat bor joyda monopoliya bo‘lishi tabiiy hol, albatta. Aynan bir mahsulot bo‘yicha oziq-ovqat bozoroida monoliyalarning ustun bo‘lib kelayotganligi bugungi kunda huquq doktorinasini qo‘rquvga solib kelmoqda. **Ikkinchidan**, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘zining barqaror rivojlanish strategiyasining 2-maqsadida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat ishlab chiqarishni oshirish, oziq-ovqat resurslaridan samarali foydalanish hamda aholining to‘yimli oziqlanishini ta’minlash kabi ustuvor maqsadlarni ilgari surgan.

### **Tadqiqot maqsadi**

Ushbu tadqiqotning maqsadi – oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash jarayonida monopoliyaning o‘rni va ta’sirini huquqiy hamda iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, oziq-ovqat bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishning ahamiyatini aniqlash, monopol holatlarning oziq-ovqat mahsulotlari narxi, sifati va aholining oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatiga ta’sirini o‘rganish hamda ushbu sohadagi monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarini

---

<sup>2</sup> Howard, P. H. (2016, yangilangan 2023). Concentration and Power in the Food System: Who Controls What We Eat? London: Bloomsbury Academic.



takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Quyida ustuvor yo'nalish hamda maqsadlar ko'rsatilgan:

1. Oziq-ovqat mahsulotlari narxining sun'iy oshirilishi hamda bozordagi raqobat muhitiga monopoliyaning ta'sirini o'rganish.
2. Strategik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va taqsimotida davlat nazorati hamda monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimini kuchaytirish.
3. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida oziq-ovqat xavfsizligi va raqobat siyosatini uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

### **Muammo tahlili**

XXI asrda yurtimizda monopoliyalar vaiularning faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy muammolar ko'plab ko'rinish berib kelmoqda. Bularga misol qilib, ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bozorining tor doiradagi subyektlar qo'lida jamlanishi aytib o'tishimiz mumkin. Ayniqsa, un, yog', shakar, don, va go'sht mahsulotlarining ishlab chiqarish va taqsimoti ayrim yirik korxonalar yoki importyorlar qo'lida to'planib qolmoqda. Bu esa bozorda raqobatning oshishiga olib kelmoqda. **Ikkinchidan**, Monopol mavqeiga ega ayrim subyektlar tomonidan sun'iy narx oshirish holatlarining mavjudligi. Uchinchidan, Import bozorida raqobatning yetarli emasligi hamda ichki bozorlarda narxlarning yuqori bo'lib qolishiga sabab bo'lib kelayotganidadir. **To'rtinchidan**, fermer va kichik ishlab chiqaruvchilarning bozordagi imkoniyatlarning cheklanganligi. **Beshinchidan**, oziq-ovqat mahsulotlari taqsimotida vositachilar soning ortib ketganligi.

<b>Muammo</b>	<b>Taklif etilayotgan yechim</b>
---------------	----------------------------------



Ayrim oziq-ovqat bozorini mahsulotlarining tor doiradagi subyektlar qo'lida to'planishi	Kichik va o'rat biznes subyektlariga subsidiya va imtiyozlar berish, hududiy ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish
Sun'iy narx oshishi holatlarining mavjudligi	real vaqt rejimida narx monitoringi tizimini joriy etish, "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga narx manipulyatsiyasi bo'yicha maxsus norma kiritish
Import bozorida raqobatning yetarli emasligi	import faoliyatida teng raqobat prinsipini buzgan subyektlarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirish
Fermer va kichik ishlab chiqaruvchilarning bozordagi imkoniyatlari cheklanganligi	Fermerlar uchn to'g'ridan-to'g'ri savdo maydonlarini yaratish

### Taklif etilayotgan yechimlar va natija

Bugungi kun muammosi – oziq-ovqat xavfsizligi tizimida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdir. Strategik mahsulotlar bozorida iqtisodiy konsentratsiyani kamaytirish orqali bozorda teng imkoniyat yaratish zarur. **Birinchi**dan, yuqorida biz sanab o'tgan birinchi muammo bo'lmish, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bozorining tor doiradagi subyektlar qo'lida to'planishi muammosiga keladigan bo'lsak, agar jamiyatda yangi shakllangan tadbirkor uchun qo'shimcha davlat xaridlarida qo'shimcha kvottalar joriy etilsa, yoxud kichik va o'rat biznes vakillariga qo'shimcha imtiyozlar belgilansa, ushbu muammoning kengayib ketishini oldini olgan bo'lar edi.



**Ikkinchidan**, Bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining oshib ketishi, xalqning iste‘mol qobiliyatining tushib ketishi oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid hisoblanadi. Bunday holatda real vaqt rejimida narx monitoring tizimini joriy etish lozim. Bundan tashqari “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga narx manipulyatsiyasi bo‘yicha maxsus norma kiritish orqali ham ko‘zlagan maqsadga erishish mumkin.

**Uchinchidan**, Import sohasida erkin va teng raqobat muhitini yaratish oziq-ovqat mahsulotlari narxini barqarorlashtirish va ichki bozor xavfsizligini ta‘minlashning muhim omili hisoblanadi. Import bozoriga endi kirib kelayotgan importyorlar ushbu tizimni yaxshi bilmasliklari, ularga bojxona jarayonlarini soddalashtirish hamda monopol importyorlarga qaramlikni kamaytirish uchun alternativ davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, bojxona va sertifikatlash tartib taomillarining shaffofligi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlarini<sup>3</sup> amalga oshirish lozim.

**To‘rtinchidan**, Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda fermer va kichik ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy himoya qilish davlat agrar siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi kerak. Bu uchun fermer va qishloq xo‘jaligi dehqonlari uchun bozorlarda alohida majburiy rasta ya‘ni savdo maydonlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**Beshinchidan**, Mahsulot taqsimoti tizimida ortiqcha vositachilik bozorda sun‘iy narx o‘sishi va monopolistik munosabatlarni kuchaytiruvchi omil sifatida baholanishi lozim. Ushbu omilni “ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga” tamoyili asosida savdo tizimini rivojlantirish orqali tashkil etish mumkin.

---

<sup>3</sup> FAO (2024). The State of Food and Agriculture 2024. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.



Ushbu choralar amalga oshsa, nafaqat monopoliyalar, dehqon va fermerlarning bozordagi ulushi hamda faoliyati ortib boradi. Bu esa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini va dehqonlarning daromadini bir necha barobarga oshirishga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Yuqoridagi muammolar oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash tizimida monopolistik omillarning salbiy ta‘siri mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, bozorda raqobatning cheklanishi, sun‘iy narx oshishi, importdagi nomutanosiblik, fermerlarning iqtisodiy imkoniyatlari yetarli emasligi hamda vositachilar sonining ortib ketishi oziq-ovqat mahsulotlari narxi va aholi ta‘minotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun monopoliyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirish, shaffof va erkin raqobat muhitini yaratish, davlat nazoratini kuchaytirish hamda zamonaviy raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur hisoblanadi. Natijada mamlakatda barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va aholi farovonligini oshirishga erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar ro‘yxati**

1. **FAO (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti).** Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha materiallar. – Rim, 1996
2. **O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni -**  
<https://lex.uz/docs/-6518381>
3. Howard, P. H. (2016, yangilangan 2023). Concentration and Power in the Food System: Who Controls What We Eat? London: Bloomsbury Academic.
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. [www.advise.uz](http://www.advise.uz)